

Munosabat

O‘ZBEKISTON – ITALIYA: TEXNIK VA MUHANDISLIK SOHALARIDA BILIM ALMASHINUVI KUCHAYADI

2025-yil 28–29-may kunlari Italiya Bosh vaziri Jorja Melonining O‘zbekistonga rasmiy tashrifi doirasida qo‘llab-quvvatlangan tashabbuslar orqali bu davlat bilan aloqalarimiz yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarilishi shubhasiz.



Prezidentimiz Samarqandda kechgan muloqotlarda qator dolzarb, jumladan, xalqaro masalalar yuzasidan yondashuvlarni muvofiqlashtirish uchun Tashqi ishlar vazirliklari darajasida muntazam muloqotlarni davom ettirish muhimligini ta’kidladi.

Shuningdek, terrorizm, ekstremizm, radikalizm, giyohvandlik moddalari savdosi va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashda ko‘p tomonlama sheriklik va maxsus xizmatlarning axborot almashish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish taklif etildi.

Davlatimiz rahbari Italiya ishbiarmon doiralariining innovatsion rivojlanish borasidagi salohiyatini hisobga olib, mamlakatlarimiz savdo-sanoat palatalari shafeligida

biznes muloqoti uchun doimiy maydon — Markaziy Osiyo — Italiya ishbiarmonlar klubini tashkil etish tashabbusini bildirdi. Tadbirkorlar ishtirokidagi bunday uchrashuvlar har yili mintaqa mamlakatlari va Italiya poytaxtida o‘tkazilishiga kelishib olindi.

Texnologiyalar transferi, ilg‘or bilim va tajribalarni joriy etish, yuqori texnologiyali sanoat ishlab chiqarishlarini tashkil etish uchun qulay sharoitlar yaratishni nazarda tutuvchi ko‘p tomonlama Sanoat va texnologik hamkorlik dasturini ishlab chiqish va qabul qilish muhimligini ta’kidladi.

Davomi 2-betda

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

O‘ZBEKISTON

BU — O‘ZLIKNI ANGLASH, BU — INSON QADRI

E‘ZOZDAGI QAHRAMONLAR, BO‘QIY QADRIYATLAR, XALQ SALOMATLIGI VA KATTA HAYOTGA YO‘LLANMA

Zamon talablariga mos taraqqiyot

Bahorning so‘nggi oyi mamlakatimiz siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy hayotida muhim voqealarga boy bo‘ldi. Ular nafaqat milliy, balki xalqaro matbuotda ham keng yoritildi, sharhlendi, tahlil qilindi. Negaki davlatimiz rahbari ishtirokida o‘tgan qator tarixiy uchrashuvlar, dolzarb masalalarga bag‘ishlangan taqdimot va videoselektor yig‘ilishlaridan aksariyatining mazmun-mohiyatida islohot, yanayam aniqroq aytisak, odamlarning hayotini bundanda yaxshilash, ularni rozi qilish maqsadi mujassam ekanini ko‘ramiz.

Mavzuga tartib bilan yondashsak, gapni dastlab Prezidentimizning Xorazm viloyatiga tashrifidan boshlash maqsadga muvofiq. Zero, bugun mamlakatimizning barcha hududi har tomonlama rivojlanayotgan. Hududlarni zamon talablariga mos taraqqiy ettirishda mavjud imkoniyatlar, iqlim va geografik xususiyatlar hisobga olingan holda individual yondashilmoqda.

Xorazm — jahonga dong‘i ketgan ne-ne olimu fozillar, sarkarda va sultonlar, aziz avliyolar, betakror shoir va hofizlar yurti. 1-2-may kunlari mamlakat jamoatchiligi nigohi mazkur hududga qaratildi. Davlatimiz rahbari tashrif davomida qator dolzarb vazifalarni belgilab berdi. Xususan, aholi turmush tarzini yaxshilash, daromad manbalari yaratish, kambag‘allikni qisqartirish choralarga e‘tiborni kuchaytirish masalalari muhokama qilindi.

Tashrif kun tartibi ancha tig‘iz edi. Sanoat, qishloq xo‘jaligi va turizm sohasidagi yangi obyektlar bilan tanishuv, transport infratuzilmasi va shaharsozlik sohasida yirik loyihalar ishga tushirilgani fikrimiz tasdig‘idir.

Davomi 3-betda

OTA SHAXSINING MA‘NAVYI QIYOFASI

Oila eng qadimiy va muhim ijtimoiy institutlardan biri sifatida shaxsning ijtimoiylashuvi, axloqiy tarbiyasi va ma‘naviy shakllanishida beqiyos o‘rin tutadi. Bu institutda har bir a‘zo — ota, ona, farzand o‘ziga xos maqom va funksiyaga ega. Ayniqsa, ota shaxsining oila ijtimoiy institutidagi o‘rni nafaqat an‘anaviy, balki zamonaviy ijtimoiy-falsafiy qarashlar nuqtayi nazaridan ham chuqur tahlilga muhtoj.

Ota — oila boshlig‘i, tarbiya beruvchi, moddiy-ma‘naviy ta‘minotchi, farzandlar uchun namunaviy shaxs. Uning maqomi nafaqat huquqiy va iqtisodiy, balki axloqiy va madaniy asoslarda belgilanadi. Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan, otaning jamiyatdagi o‘rni va funksiyasi oiladagi roli bilan chambarchas bog‘liq. Ota shaxsining ma‘naviy qiyofasi oilaning axloqiy muhitini belgilab beradi. Bu esa, o‘z navbatida, kelajak avlodning ijtimoiy xulq-atvori va fuqarolik pozitsiyasiga ta’sir ko‘rsatadi.

Farzand tarbiyasida otaning o‘rni beqiyos. U so‘zi va xatti-harakati bilan o‘g‘il-qizlariga hayot saboqlarini berib boradi. Aynan otaning ibratini orqali bola hayotda qadam tashlashni, insoniylik, halollik, mardlik, adolat, vatanparvarlik kabi fazilatlarini o‘zlashtiradi. Shuning uchun ham ota shunchaki tarbiyachi emas, balki tirik hayotiy darslik, namunadir.

Davomi 5-betda



TOMCHIDAN BOSHLANGAN BURILISH

YOXUD PAXTANING XALQARO BRENDGA AYLANGANI HAQIDA MULOHAZALAR



To‘qimachilik sohasi mamlakatimizda keng tarqalgan va aholi bandligini ta‘minlovchi muhim sanoat tarmoqlaridan. Hozir ushbu jabhada qariyb 7000 tadbirkor faoliyat yuritib, 500 turdan ortiq mahsulot ishlab chiqarilmoqda. Ayrim korxonalar esa xalqaro brendlarga kiyim-kechak yetkazib berish darajasiga yetib, soha salohiyatini yaqqol namoyon etmoqda.

Bugun bozor aylanar ekansiz, kiyim-kechaklarning aksariyati yurtimizda ishlab chiqarilganini ko‘rib quvonasiz, qalbingizda g‘urur hissini tuyasiz. Axir uzoq yillar g‘o‘za parvarishlab, paxta yetishtirish bilan shug‘ullangan xalq uchun bu katta voqea. O‘zimizning paxtamizdan o‘zimiz bozorbop, xaridorbop, eng muhimi, raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqaryapmiz.

Hozir biz arzon narxda xarid qilib, egnimizga kiyayotgan kiyim-kechakning aksariyati tanishimiz, qarindoshimiz, qo‘shnimiz mehnat qilayotgan yon-atrofimizdagi fabrikalarda tikilayotgani bor gap. Hozirgi to‘qimachilik shunchaki mato yoki kiyim ishlab chiqarish emas. Bu — taraqqiyot, bu — ishonch, bu — milliy brend yaratish borasida biz tanlagan yo‘l. Eng asosiysi, bu — har birimizning kundalik hayotimiz bilan chambarchas bog‘liq soha.

Davomi 4-betda

Mavsum

Ayni damda dehqonlar uchun qizg‘in palla boshlandi. Yaxshi niyat bilan dalaga sepilgan urug‘ bugun pishib yetildi. Endi faqat nest-nobud qilmay, yig‘ishtirib olish kerak. Buning uchun barcha hududlarda tayyorgarlik ishlariga jiddiy e‘tibor qaratildi. G‘allani o‘z vaqtida o‘rib olish uchun kerakli texnikalar shay holatga keltirildi.

QASHQADARYODA G‘ALLA O‘RIM-YIG‘IMIGA KIRISHILDI



Har yilgidan oldinroq boshlangan joriy g‘alla o‘rim-yig‘imi mavsumida ilg‘or fermer xo‘jaliklari allaqachon shartnoma rejasini bajarishning ham uddasidan chiqdi.

Mirishkorlik Umidillo ota Sharopov ko‘p yillik tajribaga ega fermerlardan. Qishloq xo‘jaligi sohasida yetakchi dehqon.

— Mehnatimiz samarasi bu yil ham yaxshi bo‘ldi. 18 gektar maydonga bug‘doy ekkandik. Avvalgi yillarga qaraganda bu mavsum erta boshlandi. Ob-havo bir oz issiq kelgani tufayli bug‘doy oldinroq yetildi. O‘z vaqtida agroteknika tadbirlar ko‘rilgani uchun hosildorlik kutilganidek bo‘ldi. Natijada 78 tonna g‘alla oldik, — deydi “Osiyo sifat tolası” fermer xo‘jaligi rahbari U. Sharopov. — Ayrim paytlarda yosh fermerlar yuqori hosildorlik siri haqida so‘rab qoladi. Bunga erishish uchun, eng avvalo, astoydil mehnat qilish kerak. Tuproq bilan tillashishni, o‘z vaqtida parvarishlashni bilish lozim. Dalada hosil mo‘l bo‘lsa, el dasturxonı to‘kin bo‘ladi. Shundagina dehqon o‘z maqsadiga erishadi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON – ITALIYA: TEXNIK VA MUHANDISLIK SOHALARIDA BILIM ALMASHINUVI KUCHAYADI

Munosabat

Boshlanishi 1-betda

Mineral resurslar va qishloq xo‘jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash, elektrotexnika, kimyo, to‘qimachilik, charm, oziq-ovqat va boshqa qayta ishlash tarmoqlari uchun zamonaviy uskunalar ishlab chiqarish, butlovchi qismlar va sanoat mahsulotlarini mahalliyashtirish, Italiyaning yetakchi brendlari ishtirokida dizayn markazlarini tashkil etish hamkorlikning ustuvor yo‘nalishi bo‘lishi qayd etildi. Shuningdek, Italiyaning SACE va SIMEST davlat agentliklari hamda qo‘shma investitsiya fondlarini hamkorlik loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga jalb qilish muhimligi aytiladi.

Bundan tashqari, “yashil” transformatsiya sohasida Italiya bilan samarali hamkorlik yuqori baholanib, uglerod chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha milliy dasturlarni amalga oshirishga ko‘maklashadigan ko‘p tomonlama platformani yo‘lga qo‘yish orqali keng qamrovli sheriklikni rivojlantirish mumkinligi ko‘rsatib o‘tildi.

Ikki davlat yetakchilari muloqotida oliy ta‘lim sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish ham kun tartibidagi muhim masalalar qatoridan o‘rin oldi. Jumladan, davlatimiz rahbari Toshkentdagi Turin politexnika va Piza universitetlari filiallari samarali faoliyat yuritayotganini ta’kidlab, Italiyaning boshqa yetakchi oliy o‘quv yurtlarining mintaqaga qiziqishi ortib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Prezidentimiz muhandislik, dizayn, suv tejamkorligi va biotexnologiyalar kabi yo‘nalishlarda ilmiy ishlarni, akademik



A‘zamjon TO‘LABOYEV, texnika fanlari doktori, dotsent

almashinuv va kadrlar tayyorlash dasturlarini amalga oshirish hamda moliyalashtirish uchun Markaziy Osiyo — Italiya ilmiy ta‘lim konsorsiumini tashkil etish tashabbusini ilgari surgani, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Xalqaro aloqalar kengaymoqda

O‘zbekistonning tashqi siyosati ochiqlik, o‘zaro manfaatli va konstruktiv hamkorlikka asoslangan, xalqaro maydondagi o‘rnini mustahkamlash va ilg‘or texnologiyalarni jalb qilishga qaratilgan. Oliy ta‘limda xalqaro aloqalarni kengaytirish esa ilmiy samaradorlikni oshirish va global standartlarga moslashish uchun muhim vositadir.

2024-yil 25-27 sentabr kunlari ilk marotaba o‘tkazilgan O‘zbekiston — Italiya

ta‘lim forumi mazkur yo‘nalishdagi sa‘y-harakatlarning yaqqol namunasiga aylandi. Forumda mahalliy va italyalik mutaxassislar zamonaviy ta‘lim yondashuvlari, raqamli ta‘lim, qo‘shma dasturlar, ilmiy izlanishlar va akademik mobillik masalalarini muhokama qildi. Yakunda ikki tomonlama 30 ta kelishuv va memorandum imzolandi, bu esa uzoq muddatli hamkorlik uchun mustahkam asos yaratdi.

Italiya — strategik hamkor sifatida

Italiya Bosh vazirining mamlakatimizga tashrifi O‘zbekiston va Italiya o‘rtasidagi strategik sheriklikni yangi bosqichga olib chiqadi. Binobarin, Italiya O‘zbekistonni mintaqadagi ishonchli siyosiy hamkor va Markaziy Osiyo bozoriga kirish eshigi sifatida ko‘radi. Tashrif chog‘ida ikki davlat o‘rtasida strategik sheriklikni mustahkamlovchi qo‘shma deklaratsiya imzolandi. Unda investitsiya, xomashyo, migratsiya, ta‘lim va savdo sohalarida hamkorlikni kengaytirish ko‘zda tutilgan.

Ta‘lim sohasida muhim qadam sifatida Tushia universiteti filialini O‘zbekistonda ochish rejalashtirildi. Shuningdek, Piza, Trento, Roma Tre va Ka- Foscari kabi nufuzli universitetlar bilan qo‘shma diplom dasturlarini yo‘lga qo‘yish masalalari muhokama qilindi. Bundan tashqari, Peruja universiteti hamda Italiya Milliy tadqiqotlar markazi bilan ham to‘g‘ridan to‘g‘ri hamkorlik hujjatlari imzolandi.


Forum doirasida Turin politexnika universiteti huzurida tashkil etilgan Italiya — O‘zbekiston ilg‘or muhandislik markazi tantanali ochildi. Mazkur markaz mexanika muhandisligi, to‘qimachilik, charm va poyabzal sanoatida ilg‘or italyan texnologiyalarini joriy qilish hamda o‘zbek

mutaxassislarini tayyorlashga xizmat qiladi. Ushbu tashabbus Italiya korxonalari, ayniqsa, kichik va o‘rta biznes subyektlarini O‘zbekistonning sanoat modernizatsiyasi, xususan, “yashil” energetika va barqaror ishlab chiqarish kabi yo‘nalishlarga jalb etishga xizmat qiladi.

“Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, Samarqandda Rim ko‘chasi ochilishi ikki xalq o‘rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalar, yuksak darajadagi hamkorlik va o‘zaro hurmatning ramziy ifodasidir.

Tashrif davomida imzolangan hujjatlar ta‘lim sohasidagi aloqalarni yanada chuqurlashtirish imkonini beradi. Bu esa o‘zbek talabalarining Italiya universitetlarida sifatli ta‘lim olish imkoniyatini kengaytiradi. Qo‘shma dasturlar, ilmiy izlanishlar va Italiya — O‘zbekiston ilg‘or muhandislik markazi kabi ixtisoslashtirilgan muassasalar orqali texnik va muhandislik sohalarida bilim almashinuvi kuchayadi. Bu esa mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi va texnologik taraqqiyoti uchun muhim zamin yaratadi.

Ushbu hamkorlik orqali ta‘lim va kasbiy tayyorgarlik dasturlarimizni mehnat bozori talablariga moslashtirish imkoniyatimiz yanada kengayadi. Bu inson kapitalini rivojlantirish va har bir fuqaroga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoit yaratishni ko‘zda tutuvchi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining ustuvor maqsadlariga to‘liq mos keladi. 30-may kuni Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo — Italiya sammiti ham mazkur yo‘nalishdagi o‘zaro hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Mavsum



QASHQADARYODA G‘ALLA O‘RIM-YIG‘IMIGA KIRISHILDI

Boshlanishi 1-betda

Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligi boshqarmasi ma‘lumotiga ko‘ra, joriy yilda viloyatdagi 6850 ta fermer xo‘jaligining 133 ming 600 gektar maydonida boshqoli don yetishtirilgan. Ushbu maydonlardan 334 ming tonna don olishi kutilmoqda. Shundan 304 ming 433 tonnasi tovar don, 29 ming 567 tonnasi urug‘lik don.

Dehqonlarning salmoqli mehnati evaziga yetishtirilgan hosilni sifatli va qisqa muddatda yig‘ishtirib olish soha xodimlari oldidagi dolzarb vazifalardan. Ayni pallada dalada ish avjida. Imkoni boricha tezroq g‘allani o‘rib-yig‘ib olish uchun mehnat qilinmoqda. Buning uchun soha vakillari, fermer-dehqonlar jonbozlik ko‘rsatmoqda. Nasib etsa, bu yilgi xirmon yanada barakali bo‘ladi,— deydi Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Ruslan Jabilov. — Xususan, bajariladigan har bir ish e‘tiborga olingan. Texnikalarimiz ham xizmatga shay holatda. Hozir vohamizda 302 ta g‘alla o‘rish kombayni, don hosilini

qabul qilish korxonalariga tashish uchun 1738 ta yuk avtomobili, yonilg‘i-moylash mahsulotlarini yetkazib berish uchun 73 ta ko‘chma yonilg‘i quyish agregati hamda servis va ta‘mirlash ishlarini bajarish uchun 119 ta ko‘chma ta‘mirlash ustaxonasi birlashtirilgan. Shuningdek, maydonlardagi hosilni o‘rib-yig‘ib olish uchun 152 ta o‘rim otryadi tashkil etilib, tarkibiga 120 ta o‘rim texnikasi jalb etilgan.

2025-yilgi g‘alla hosilini qabul qilish davomida “Hosil qabuli” axborot tizimi orqali bug‘doy qabul qilish tartibi joriy etildi. Bugun don korxonalaridagi elektron avtomobil tarozilar “Hosil qabuli” axborot tizimiga bosqichma-bosqich ulanmoqda.

Qisqasi, mirishkorlar mehnati tufayli xirmonlar barakali bo‘lib, g‘alla omborlari donga to‘lmoqda. Mo‘l-ko‘lchilik ortidan el dasturxonida to‘kinchilik bo‘lishi shubhasiz.

Akbar RAHMONOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

O‘ZBEKISTON XALQARO MEHNAT KONFERENSIYASINING 113-SESSIYASIDA BIR OVOZDAN UMUMIY ISHLAR BO‘YICHA QO‘MITA RAISI ETIB SAYLANDI

2-iyun kuni Jeneva shahrida Xalqaro mehnat konferensiyasining (XMK) 113-sessiyasi o‘z ishini boshladi.

XMK Xalqaro mehnat tashkiloti – XMTning oliy organi bo‘lib, unda umumiy mehnat va ijtimoiy masalalar hamda xalqaro mehnat standartlari muhokama qilinadi va tashkilotning umumiy siyosati belgilanadi. Tadbirda XMTga a‘zo 187 davlatdan hukumatlar, ish beruvchilar va ishchilarning 3000 dan ortiq vakili ishtirok etmoqda.

Xalqaro mehnat tashkilotiga a‘zo davlatlar delegatsiyalari tomonidan bir ovozdan qabul qilingan qaror bilan O‘zbekistonning Jeneva shahridagi BMT bo‘linmasi va boshqa xalqaro tashkilotlardagi doimiy vakili tarixda birinchi marta XMKning 113-sessiyasi Umumiy masalalar bo‘yicha qo‘mitasi (General Affairs Committee, CAG) raisi etib saylandi.

Xalqaro mehnat tashkilotining doimiy organi bo‘lgan ushbu qo‘mita konferensiyaning samarali faoliyatini ta‘minlash, boshqaruvning marakkab masalalarini ko‘rib chiqish va XMT institutsional barqarorligini ta‘minlashda muhim strategik o‘rin tutadi. Xususan, u konferensiya tomonidan o‘ziga havola qilingan masalalarni ko‘rib chiqadi va xulosalar tayyorlaydi hamda protsessual va tashkiliy masalalarga e‘tibor qaratgan holda XMT faoliyatining turli jihatlarini ustidan nazorat funksiyalarini amalga oshiradi.

Qo‘mita o‘z majlislarida 2025-yilda Ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha IIkinchi jahon sammitini o‘tkazish to‘g‘risidagi rezolyutsiya loyihasini, 2006-yildagi Dengiz mehnati konvensiyasi kodeksiga qo‘shimchalarni ma‘qullash, shuningdek, Myanma va Xalqaro mehnat tashkiloti o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari hamda Falastinning tashkilot faoliyatidagi ishtiroki to‘g‘risidagi rezolyutsiya loyihasini ko‘rib chiqadi.

Xalqaro mehnat tashkilotidagi asosiy qo‘mitalardan birida bunday yuksak va mas‘uliyatli lavozimga saylanishi mamlakatimizning xalqaro nufuzi tobora ortib borayotganidan, global ijtimoiy muloqotni rivojlantirishga qo‘shgan faol hisssasi, mehnat



munosabatlari sohasidagi yutuqlari e‘tirof etilganidan dalolat beradi.

Bu, shuningdek, O‘zbekistonga strategik qarorlarni shakllantirishga hissa qo‘shish, xalqaro mehnat huquqi tizimidagi obro‘sinini mustahkamlash, yaxshi boshqaruv, inson huquqlari va munosib mehnat tamoyillariga sodiqligini namoyish etish uchun imkoniyat yaratadi.

Tashkilotga a‘zo davlatlarning Xalqaro mehnat tashkilotidagi vakillari va uch tomonlama hamkorlari fikricha, O‘zbekistonning rais lavozimiga tayinlanishi mamlakatda mehnat sohasidagi islohotlar, bandlik sharoitini yaxshilash, mehnatkashlar imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, mamlakatimizning Xalqaro mehnat tashkiloti tamoyillariga sodiqligining e‘tirofi sifatida baholanmoqda. O‘zbekiston raisligida Umumiy ishlar qo‘mitasi yuqori mas‘uliyat, inklyuzivlik va oshkoralik bilan ish yuritishi, kun tartibidagi ustuvor masalalarning samarali ko‘rib chiqilishini ta‘minlash va Xalqaro mehnat tashkiloti institutsional salohiyatini yanada mustahkamlashga ishonch bildirildi.

Xalqaro mehnat konferensiyasining 113-sessiyasi 13-iyungacha qadar davom etadi.

“Dunyo” AA
Jeneva shahri

XORIJLIK 16 MILLION SAYYOH

ULARNING YURTIMIZGA KELISHI TURIZM EKSPORTINI 4 MILLIARD DOLLARDAN OSHIRADI

Turizm

Shu yil 1-iyundan Bahrayn, Kuvayt va O‘mon fuqarolari uchun joriy qilingan O‘zbekistonga 30 kunlik muddatga vizasiz kirish rejimi kuchga kirdi. Rossiya, Qozog‘iston va Ozarbayjon fuqarolari uchun esa ichki hujjat yoki ID karta, 16 yoshga to‘lmaganlarning “kinder pasport” bilan bir oygacha kirishiga ruxsat berilishi kutilyapti. Ayni paytda AQSH fuqarolari uchun ham shunday yengillik berish, o‘z navbatida, o‘zbekistonliklarning okean orti davlatiga kirishini yengillashtirish masalasi o‘rganilmoqda.

Endi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari Yevropa Ittifoqi davlatlari, Rossiya, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Indoneziya, Malayziya va Ko‘rfaz arab davlatlaridan sayyohlar kelishini ko‘paytirishga mas‘ul. Shuningdek, o‘z hududida turizmini rivojlantirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqadi va ularni amalga oshiradi.

So‘nggi yillarda bunday xabarlar O‘zbekiston uchun yangilik bo‘lmay qoldi. Maqsad — Buyuk ipak yo‘li markazida joylashgan bebaho, betakror tarixiy obidalar va tabiatga ega mamlakatimizda turizmini eng rivojlangan sohaga aylantirish. Prezidentimizning shu yil 15-maydagi “2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida joriy yilda mamlakatimizga kelayotgan xorijlik sayyohlar sonini 16 millionga yetkazish, turizm eksportini 4 milliard AQSH dollaridan oshirish belgilandi. Mahalliy sayyohlar sonini esa 40 milliondan oshirish maqsadida qo‘shimcha 378 ta turoperator faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Aksariyat davlatlarda turizmini iqtisodiyotning muhim drayveriga aylantirishga katta e‘tibor qaratilyapti. Jahon turizm tashkiloti ma‘lumotiga ko‘ra, sayyohlar soni 2024-yilda rekord ko‘rsatkich — 1,4 milliard kishiga yetgan. Bu dunyoning har



“YURTIMIZGA KELAYOTGAN XORIJLIK SAYYOHLAR SONI YILDAN YILGA KO‘PAYMOQDA. O‘TGAN YILI MAMLAKATIMIZGA KELUVCHILAR 10 MILLIONGA YETDI. TURIZM EKSPORTI 1,6 KARRA KO‘PAYIB, 3,5 MILLIARD DOLLARDAN OSHDI. MINGLAB YANGI ISH O‘RNI OCHILMOQDA.



Zuhra MIRG‘OZIYEVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

oltinchi fuqarosi sayohatga chiqyapti, degani. 2030-yilga borib bu ko‘rsatkich 40-50 foiz o‘sishi kutilyapti.

Shu o‘rinda sayyohlikning bugun barcha davlat uchun eng dolzarb masalalar — aholini ish bilan ta‘minlashdagi o‘rni tobora oshib borayotganini alohida qayd etish joiz. Bugun qariyb 400 million kishi ushbu sohada xizmat qilmoqda. Global iqtisodiyotda band bo‘lgan har 10 ta ish joyidan biri turizm hissasiga to‘g‘ri keladi.

Albatta, ushbu ko‘rsatkichlarni bir necha hissa oshirish imkoniyati bor. Biroq sayyohlik infratuzilmasida — xavfsizlik, yo‘l, transport, mehmonxona, aloqa, kommunal xizmatlar, savdo, targ‘ibot-tashviqot ishlari bilan bog‘liq muammalar borki, bu sayyohlikning keng ko‘lamli rivojiga to‘siq bo‘lyapti.

Mamlakatimizda ham bu borada yetarlicha muammolar bor. Shu bois, davlatimiz rahbari ishtirokida turizm bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishlarda mutamam infratuzilmani yaxshilash masalasi ko‘tariladi va bu bo‘yicha vazifalar belgilanadi.

To‘g‘ri, yurtimizga kelayotgan xorijlik sayyohlar soni yildan yilga ko‘paymoqda. O‘tgan yili mamlakatimizga keluvchilar 10 millionga yetdi. Turizm eksporti 1,6 karra ko‘payib, 3,5 milliard dollardan oshdi. Minglab yangi ish o‘rni ochilmoqda. Lekin salohiyat va imkoniyatlar sarhisob qilinsa, ko‘riayotgan chora-tadbirlar ularni to‘laqonli ro‘yobga chiqarishga yetarli emasligi ayon bo‘ladi.

Demak, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi vakili sifatida turizm bilan bog‘liq normativ-huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirish, sayyohlik bilan shug‘ullanayotgan korxonalariga yengillik berish, kamchiliklar ustida ko‘proq ishlashimiz lozim deb bilaman. Eng muhimi, joylarda Prezidentimizning soha bo‘yicha chiqqan farmon va qarorlari, davlat dasturlarida belgilangan vazifalar ijrosi bo‘yicha deputatlik nazoratini kuchaytirishimiz talab etiladi.



BU — O‘ZLIKNI ANGLASH, BU — INSON QADRI

Boshlanishi 1-betda

— Xorazm xaritasiga yana bir gavhar — “Arda Xiva” majmuasi qo‘shilgani bizni behad quvontirgan eng muhim voqealardan biri bo‘ldi, — deydi xalq deputatlari viloyat kengashi deputati Maysara Xudoyberganova. — Majmuaning tantanali ochilish marosimida Prezidentimiz ishtirok etib, nutq so‘zladi. Ushbu xalqaro turizm maskanida 17 ta mehmonxona va mehmon uylari, 9 ta restoran, ochiq va yopiq akvaparklar, 3000 o‘rinli amfiteatr, 5 ta kino va konsert zali, ko‘rgazmalar pavilyoni, 70 ta do‘kon, 300 ta savdo rastasi, 11 ta hunarmandlar uyi, Sharq bozori va zargarlik markazi, favvoralar, sohil bo‘yi yo‘lagi mavjud. Eng muhimi, bunday ishlar hisobidan viloyatga keladigan turistlar soni qo‘shimcha 1 millionga oshadi, xizmat ko‘rsatish qiymati 1,2 trillion so‘mga ko‘payadi, kamida 2000 ta ish o‘rni ochiladi.

Majmuaning o‘ziga xos “Arda Xiva”, ya‘ni “port shahri” deb tarjima qilinadigan nomi uning joylashgan o‘rman kelib chiqqan. Bir vaqtlar bu yerda — Xiva yaqinida Amudaryo o‘zani o‘tgan, hatto bu o‘zan Kaspiy dengiziga quyilgan degan ma‘lumotlar ham uchraydi.

— 2-may kuni Urganch tumanida viloyatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda Prezidentimiz Xorazm zaminini shonli tariximiz bilan yangi islohotlar utashgan chorraha ekanini ta‘kidladi, — deydi Shovot tumani hokimi Murod Davlatov. — Mavjud imkoniyat va resurslarni ishga solish bo‘yicha juda o‘rinli va istiqbolli takliflarni ilgari surdi. Jumladan, viloyatda kambag‘allik darajasi hali ham 12 foiz atrofida, 45 ming fuqaro ishsiz ekanini tanqid qilindi, hokimlar va o‘rinbosarlar har bir imkoniyatni loyihaga aylantirib, yangi ish o‘rinlari ochishi, sanoat, servis, turizm, qishloq xo‘jaligi, eksport salohiyatini yanada oshirishi zarurligi ta‘kidlandi. Bu sohalaridagi imkoniyatlar va ularni ishga solish choralari ko‘rsatib o‘tildi.

Darhaqiqat, yurtimizda turizm eksporti salohiyati 10 milliard dollar bo‘lsa, shuning 2 milliard dollari aynan Xorazmga to‘g‘ri keladi. Afsuski, bu imkoniyat to‘liq ishga solinmayapti. Viloyat bo‘yicha jami 263 ta madaniy meros obyekti mavjud. Tadbirkorlar bilan hamkorlikda ular turistik maskangaga aylantirilsa, qo‘shimcha daromad va ish o‘rinlari bo‘ladi. Viloyatda 40 dan ortiq hunarmandchilik yo‘nalishi rivojlangan, sayyohlar mahsulot tayyorlash jarayoniga ham qiziqadi. Bularning barchasi imkoniyat deganidir.

Umuman, davlatimiz rahbari tomonidan bu yil jami 200 million dollarlik 91 ta loyihani bajarish, turizm va xizmatlar sohasida 100 mingta ish o‘rni ochish vazifasi qo‘yildi. 2 million xorijiy va 10 million mahalliy sayyoh jalb qilib, turizm eksportini 700 million dollardan oshirish mumkinligi ko‘rsatib o‘tildi.

Xalq qahramonlariga ehtirom

Har kuni G‘alaba bog‘i yonidan ikki marta o‘taman: ertalab ishga ketayotib va uyga qaytishda. Majmua ko‘z oldimda bunyod bo‘ldi, ko‘z oldimda takomillashdi va to‘laonli qiyofa kasb etdi. Doim bu yerga kirib-chiqayotgan turli yoshdagi odamlarni, navjiron avlod vakillarini, harbiylarni ko‘raman. Aksariyat oilaviy yoki jamoaviy kelayotganlar qo‘lida gul bo‘ladi. Shunda bir jihat yaqqol seziladi: vaqt o‘tgan sari bu yerga keluvchilar soni ortib boryapti.

Ha, mamlakatimizda so‘nggi yillarda qahramon ajdodlarimizning hayoti va faoliyati, mardligi va matonatini chuqur o‘rganish hamda targ‘ib etish, yosh avlodni ularning shonli an‘analari ruhida tarbiyalash bo‘yicha ko‘p xayrli



ishlar qilinmoqda. Poytaxtimizda bunyod etilgan G‘alaba bog‘i, hududlardagi “Vatanparvar” bog‘lari kabi tabarruk maskanlar qisqa muddatda barcha yurtidoshimiz va chet ellik mehmonlar uchun qutlug‘ qadamjoga aylandi.

Ana shunday ezuq ishlarining davomi sifatida G‘alaba bog‘i hududida ona yurt qalqonlari sharafiga barpo etilgan yana bir tarixiy yodgorlik — “Millat fidoyilari” majmuasi ham, hech shubhasiz, g‘oyat muhim ahamiyatga ega.

“Ishonchim komil, yuzlab marhum bahodir harbiy xizmatchilar va muhoqini muhofaza qilish organlari xodimlarining nomlari zarhal harflar bilan muhrlab qo‘yilgan ushbu



Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

muhtasham badiiy obida el-yurtimiz chin dildan intiladigan va faxrlanadigan yana bir mo‘tabar maskan bo‘lib qoladi”, deyiladi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan bayram tabrigida.

“ Ijtimoiy sohalaridagi barcha sa’y-harakatlar ana shu maqsadlarga qaratilgan. Oxirgi 7 yilda maktabgacha va maktab ta’limi uchun mablag‘ 7 barobar oshirilgan. Bu yil 60 trillion so‘m ajratilgan. Maktablarda 1 millionga yaqin, bog‘chalarda 1,5 million yangi o‘rin ochildi. Malaka, til bilish, yangi baholash tizimi, fan olimpiadalari kabi mezonlar asosida o‘qituvchilarga 10 dan ortiq ustama joriy qilindi. Yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish, to‘g‘ri tarbiyalash, zararli ta’sirlardan asrash ham dolzarb masalalardan.

Ushbu yodgorlik mustaqillik yillarida mamlakatimiz himoyasi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va huquq-tartibot idoralari xodimlari xotirasiga bag‘ishlab barpo qilindi. Majmua yuqoridan qaraganda davlatimiz bayrog‘idagi yarim oy va o‘n ikki yulduz shaklida namoyon bo‘ladi. Qariyb ikki metrl yulduzlarning qirralari bitiktosh vazifasini ham o‘taydi. Ularning yon tarafiga 196 qahramonimiz nomi zarhal harflar bilan yozilgan. Bu bitiklar yoniga monitorlar o‘rnatilgan, millat fidoyilari to‘g‘risida ma‘lumotlar foto va video orqali namoyish etib boriladi.

Davlatimiz rahbari sana arafasida G‘alaba bog‘idagi “Millat fidoyilari” xiyobonida bo‘ldi. Shu yerda marhum harbiy xizmatchilarning oila a‘zolari bilan uchrashdi, ularga chuqur hurmatini bildirdi.

— Har yili bu yerga kelib, Ikkinchi jahon urushidagi yo‘qotishlarni eslaymiz. Endi mustaqillik fidoyilariga bag‘ishlangan ushbu majmuani tashkil qilganimiz xayrli ish bo‘ldi. Chunki ular ham milliy qahramonlarimiz. Shu jihatdan, bu maydonning ma‘naviy ahamiyati katta. Bu ham o‘zlikni anglash, bu ham inson qadri, — dedi davlatimiz rahbari.

Bu yil Xotira va qadrlash kuni boshqacha, ko‘tarinki ruhda, hamjihatlikda o‘tdi. Qadrdon oilasi va xalqi ardorg‘ida bo‘lish, yurtga kerakli ekanini his etish insonni yashashga undaydi. Mehr-e‘tibor, bir og‘iz shirin so‘zga mustoq keksalar uchun bundan ortiq xursandchilik yo‘q, aslida. Sana munosabati bilan tashkil etilgan



qilamiz. Yaratilayotgan imkoniyatlarni ko‘rib, quvonamiz.

Hamjihatlik — qudratli kuch

Prezidentimiz 20-21-may kunlari Budapeshtda Turkiy davlatlar tashkilotining “Sharq va G‘arbiy uchrashuv joyi” shiori ostidagi norasmiy sammitida ishtirok etdi. Kun tartibiga muvofiq, tashkilot doirasidagi ko‘p qirrali hamkorlikning bugungi holati va istiqbolari yuzasidan fikr almashildi, amaliy hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Sammitda davlatimiz rahbari nutq so‘zlab, avvalo, murakkab geosiyosiy-geoiqtisodiy ziddiyatlar, mintaqaviy nizolar va iqlim o‘zgarishi oqibatlarining kuchayishi barcha davlat uchun qiyin sinov bo‘layotganini alohida

qayd etdi. Muammolarga faqat xalqaro huquq me‘yorlari, BMT nizomi asosida yechim topish zarurligini ta‘kidladi.



Shuningdek, ko‘plab masalalar qatori fan, madaniyat va ta‘lim sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari alohida e‘tibor qaratdi. Toshkent shahrida Turkiy davlatlar xalqaro universitetining ochilishi a‘zo mamlakatlarning ta‘lim dasturlarini amalga oshirish va iqtidorli yoshlarni tayyorlashga munosib hissa bo‘lishi qayd etildi.

O‘zbekiston yetakchisi Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — TURKSOY faoliyati va tuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish hamda Turkiy madaniyat jamg‘armasi kengashining navbatdagi yig‘ilishini O‘zbekistonda o‘tkazishni taklif qildi. Tashkilotning ushbu tuzilmasini yangilash a‘zolar o‘rtasida madaniy almashinuv va loyihalar muvofiqlashuvini kuchaytirish, turkiy davlatlar brendini xalqaro miqyosda ilgari surish imkonini beradi.

Davlatimiz rahbari ilgari surgan tashabbuslar turkiy xalqlar o‘rtasida hamkorlikning uzoq muddatli huquqiy asosini mustahkamlash, o‘zaro savdo ulushini ko‘paytirish, yuk tashish hajmini oshirish va bojxona-chegara tartiblarini soddalashtirish, o‘zaro investitsiyalar ko‘lamini kengaytirish, iqlim o‘zgarishlariga qarshi birgalikda kurashish, birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

TDT sammiti ko‘plab yetakchi ommaviy axborot vositalarida keng yoritildi. Ularda tadbirning ahamiyati, xalqaro maydonda tashkilot nufuzi oshib borayotgani bilan birga davlatimiz rahbarining tashabbuslari e‘tirof etildi. Xususan, “Hungarian Conservative” (Vengriya) axborot-tahliliy nashrida “O‘zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotidagi yetakchiligi: Prezident Shavkat Mirziyoyevning qarashlari” sarlavhali maqola e‘lon qilindi. Unda O‘zbekistonda TDT kun tartibini belgilab beruvchi va uning xalqaro maydondagi ta‘sirini kuchaytiruvchi qator chuqur islohotlar boshlandi deya ta‘kidlanadi.

Ha, bugun O‘zbekistonning TDTdagi roli va ilgari surayotgan tashabbuslari yetakchi



ekspertlar va xorijiy OAV tomonidan yuksak baholanmoqda.

Shundan so‘ng davlatimiz rahbari rasmiy tashrif bilan Sloveniya Respublikasida bo‘ldi. Mamlakat Prezidenti Natasha Pirs Musar, Bosh vazir Robert Golob va Milliy assambleya Raisi Urshka Klakochar-Zupanchich bilan sernazmun muzokaralar tashkil etildi. Tomonlar siyosat, iqtisodiyot, investitsiyalar, sanoat kooperatsiyasi, ekologiya, madaniyat, turizm va ta‘lim sohalarini qamrab olgan keng ko‘lamli masalalarni muhokama qildi.



Prezidentimizning taklifiga binoan Italiya Respublikasi Bosh vaziri Jorja Meloni 28-29-may kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ldi. Samarqand mezbonligida O‘zbekiston va Italiya strategik sheriklik munosabatlarining yangi davriga start berildi. Ikki mamlakat yetakchilari hamkorlikni yanada rivojlantirish va kengaytirish masalalariga diqqat qaratdilar.

Yakunda ikki tomonlama qator bitimlar imzolandi, erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish bo‘yicha kompleks “yo‘l xaritasi”ni tayyorlash to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Mazkur tashrif O‘zbekiston va Italiya o‘rtasidagi tarixiy yaqin aloqalar va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, oliy darajadagi muzokaralar chog‘ida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishning yangi bosqichini boshlab berdi.

Shuningdek, Prezidentimiz 30-may kuni Ostona shahrida ko‘p qirrali hamkorlik, eng avvalo, “yashil iqtisodiyot”, investitsiyalar, innovatsiyalar, fan va ta‘lim sohalarini yanada rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqilgan “Markaziy Osiyo — Italiya” formatidagi oliy darajali sammitda ishtirok etdi.

Salomatlik — birlamchi masala

Prezidentimiz raisligida tibbiyotning birlamchi bo‘g‘ini va ixtisoslashgan muassasalarda xizmatlar sifatini oshirish, dori iste‘molini tartibga solish hamda tibbiy ta‘limni takomillashtirish bo‘yicha ustuvor vazifalari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida sog‘liqni saqlash sohasidagi umumiy holat muhokama qilindi. Shuningdek, tizimdagi dolzarb muammolar, birlamchi bo‘g‘inda tibbiy xizmat sifatini oshirish, mablag‘ni to‘g‘ri ishlatish, raqamlashtirish va sug‘urtani joriy etish, aholini malakali tibbiy xizmat bilan

ta‘minlash borasida galdagi vazifalar belgilab berildi.

So‘nggi 7 yilda sog‘liqni saqlash sohasiga ajratilayotgan mablag‘ 6 barobar oshirildi. Hududlardagi shifoxonalar moddiy-texnik jihatdan yangilandi. Ilgari faqat poytaxtda bajarilgan 400 dan ortiq yuqori texnologik amaliyot viloyat va tumanlarda o‘tkazil-yapti. Mahalladagi birlamchi bo‘g‘in bilan ixtisoslashgan xizmatlarni bog‘laydigan tizim yo‘lga qo‘yildi.

Yig‘ilishda sohadagi ta‘lim sifatiga ham alohida e‘tibor qaratildi. So‘nggi yetti yilda tibbiyot yo‘nalishlariga qabul kvotasi ko‘payib, yiliga 25 ming talaba o‘qishga kiriyapti. Ularning 40 foizi xususiy oliyoghlarda o‘qimoqda.

Endi tibbiyot oliyoghlari va texnikum bitiruvchilarining zamonaviy diagnostika va davolash usullarini o‘zlashtirishi shaffof tizim asosida alohida baholalanadi. Buning uchun Tibbiyot sohasini baholash milliy markazi tashkil qilinadi. Bu tizim hozir ishlayotgan shifokor va hamshiralar faoliyatiga ham tatbiq etiladi.

— Chuqur tanqidiy-tahliliy ruhda o‘tgan yig‘ilishda qator yangi tashabbuslar ilgari surildi, — deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Anvarjon Nurmatov. — Masalan, endi tibbiyot brigadasi hamda unga birkiritilgan aholi o‘rtasida huquq va majburiyatlarini belgilovchi ikki tomonlama shartnoma tuziladi. Aholi oilaviy shifokorni erkin tanlashi, bu jarayonlarga xususiy oilaviy shifokorlar ham jalb etilishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, fuqarolarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishi va salomatligini mustahkamlashiga xizmat qiladi.

Yig‘ilishda ilgari surilgan dolzarb vazifalar orasida birlamchi tibbiyot bo‘g‘inida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish borasidagi talablar alohida ahamiyati kasb etdi. Ushbu ustuvor yo‘nalish xalq salomatligini ta‘minlashda eng muhim halqa sifatida yana bir bor e‘tirof etildi.

— Endi har bir tibbiyot OTMga muayyan klinikka birkiritiladi. Natijada talabalar universitet klinikasida malaka oshiradi, — deydi Toshkent davlat tibbiyot universiteti rektori Shuhrat Boymurodov. — To‘g‘ri, hozir ham talabalar klinikada amaliyot o‘taydi, ammo jarayonni klinikla rahbariyati boshqaradi. Yangi tartib bo‘yicha klinikalar tibbiyot OTMlar tasarrufiga o‘tkaziladi. Tegishli kafedralar klinikaga bo‘limlaridagi davolash ishlarini boshqaradi. Bu esa nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta‘minlash, tibbiy ta‘limni hayotga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Prezidentimiz yo‘l xo‘jaligidagi ishlar natijadorligi va rejadagi loyihalar, seysmik xavfsizlikni kuchaytirish chora-tadbirlariga oid takliflar, O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayoni va uni jadallashtirish chora-tadbirlari, qurilish materiallari sanoatidagi ishlar va asosiy vazifalar, temir yo‘llarni rivojlantirish chora-tadbirlari bo‘yicha taqdimotlar bilan tanishdi.

Maktab ta’limidagi islohotlar yangi bosqichda

Gap ta‘lim va o‘qitish sifatiga kelib taqalar ekan, davlatimiz rahbari huzurida bo‘lib o‘tgan yana bir yig‘ilish tafsilotlariga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq. Prezidentimiz 15-may kuni maktab ta‘limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha ustuvor vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishini bunday so‘zlar bilan boshladi:

“Dunyoda isbot talab qilmaydigan bir haqiqat bor: har qanday mamlakat taraqqiyoti sog‘lom va bilimli avlodga bog‘liq. Shu bois, yangi O‘zbekistonda barpo etish yo‘lida sog‘lom, bilimli, teran fikrli, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash uchun barcha sharoitlarni yaratishimiz shart va zarur”.

Ijtimoiy sohalaridagi barcha sa’y-harakatlar ana shu maqsadlarga qaratilgan. Oxirgi 7 yilda maktabgacha va maktab ta‘limi uchun mablag‘ 7 barobar oshirilgan. Bu yil 60 trillion so‘m ajratilgan. Maktablarda 1 millionga yaqin, bog‘chalarda 1,5 million yangi o‘rin ochildi. Malaka, til bilish, yangi baholash tizimi, fan olimpiadalari kabi mezonlar asosida o‘qituvchilarga 10 dan ortiq ustama joriy qilindi. Yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish, to‘g‘ri tarbiyalash, zararli ta’sirlardan asrash ham dolzarb masalalardan.

Yig‘ilishda sohadagi har bir yo‘nalish atrofiicha tahlil qilinib, ustuvor vazifalar belgilandi. Maktab ta‘limini yangi bosqichga ko‘taradigan tashabbuslar ilgari surildi. Davlatimiz rahbari yoshlarni nufuzli xorijiy universitetlarda o‘qitish masalasiga alohida to‘xtaldi. Farzandlarimiz juda iqtidorli ekanini, faqat ularni to‘g‘ri yo‘naltirib, maqsadli tayyorlash zarurligi ta‘kidlandi. Shu maqsadga Prezident iqtidorli farzandlari milliy dasturi boshlanadi. Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab tashkil etiladi. Unga 8-sinf bitiruvchilaridan 60 nafari saralab olinib, reytingi yuqori oliyoghlarga maqsadli tayyorlanadi.

Shuningdek, yozgi ta‘tilda yoshlarni oromogohlar va foydali mashg‘ulotlarga jalb etish, sport musobaqalari, intellektual o‘yinlar va san‘at kechalari o‘tkazish bo‘yicha vazifalar belgilandi.

Prezidentimiz 27-may kuni mamlakatimizda bo‘lib turgan BMT Bolalar jamg‘armasi (UNICEF) ijrochi direktori Ketrin Rasselni qabul qildi. BMT tizimidagi ushbu yetakchi ixtisoslashgan institut bilan ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Darvoqe, davlatimiz rahbari mamlakatimiz maktablarini bitiruvchi o‘g‘il-qizlarimizga murojaat yo‘lladi. Ularni hayotidagi unutilmas quvonchli voqea — maktab ta‘limni muvaffaqiyatli tugatib, yetuklik shahodatnomasini qabul qilib olayotgani va mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgani bilan samimiy muborakbod etdi.

Tabrikda bitiruvchilarning imkoniyatlardan oqilona foydalanib, yoshlik faslining oltinga teng har bir daqiqasini qadrlashi, kelgusida vatanimiz mustaqilligi, el-yurtimiz manfaatlarini barcha sohada dadil himoya qiladigan yetuk kadrlar, ongli va olijanob insonlar bo‘lib, xalqimizga sidqidildan xizmat qilishi uchun ishonch bildirildi.

Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi ma‘lumotiga ko‘ra, joriy o‘quv yilida 451 ming 73 o‘g‘il-qiz 11-sinfni tamomlamog‘da. Bitiruvchilarning 11 ming 566 nafari oltin, 2475 nafari esa kumush medalga munosib topildi. Mamlakatimizdagi yuzlab oliy ta‘lim muassasalari, kasb-hunar maktablari, kollej va texnikumlar bitiruvchilarni tanlagan sohasi bo‘yicha yetuk, vatanimiz taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan kadrlar qilib tayyorlashga shay turibdi. O‘g‘il-qizlar zamon talablariga mos puxta bilim va malaka egallash imkoniyatiga ega. Bu esa ularga katta hayotda o‘z yo‘lini topishga qulay sharoit yaratadi.

Ertamiz egalarining inson qadri ulug‘lanadigan, qahramonlarga hurmat va e‘zoz ko‘rsatiladigan, xalq salomatligi ustuvor bo‘lgan jamiyatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shish uchun katta hayot sari bosayotgan dastlabki qadamlari qutlug‘ bo‘lsin.

Gulchehra KARIMOVA,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti katta o‘qituvchisi

Boshlanishi 1-betda

U mehrlir, g‘amxo‘r, ayni vaqtda qat’iyatli va talabchan bo‘lishi bilan farzand uchun ichki tayanchga aylanadi. “Ibrat timsoli” deganda, ko‘pincha hayotini oilasi, farzandlari, jamiyati yo‘lida bag‘ishlagan, halol mehnati, yuksak ma‘naviyati bilan tanilgan insonlarni ko‘z oldimizga keltiramiz. Bunday otalar har bir yurish-turishda mas‘uliyatni chuqur his etadi, farzandlariga hayotiy yo‘l ko‘rsatadi. Ularning qarashlari, mehnatkashligi, halolligi farzandlar uchun eng buyuk merosdir.

Har bir ota o‘g‘il-qizini komil inson etib tarbiyalashga harakat qilsa, butun jamiyatda sog‘lom, fidoyi va vatanparvar avlod shakllanishiga zamin yaratadi. Bunday tarbiya ostida ulg‘aygan bolalar kelajakda oilasida ham ana shunday qadriyatlarini davom ettiradi. Bu uzluksizlik esa jamiyatda ma‘naviy barqarorlikni ta‘minlaydi.

Qur‘oni karimda va hadislarda ham ota-onaga ehtirom bilan munosabatda bo‘lish, ularning xizmatini qilish haqida o‘gitlar bor. Bugungi zamonaviy sharoitda ibrat timsoli sifatida har bir erkak o‘z oldiga yuqori maqsadlar qo‘yishi, farzandlariga nafaqat moddiy, balki ma‘naviy yetakchi bo‘lishi kerak. Axloqiy poklik, bilimga intilish, mehnatsevarlik kabi fazilatlar bilan hayot kechirayotgan ota jamiyat uchun katta boylikdir. Bunday otalar ko‘paysa, sog‘lom ma‘naviy muhit, kuchli oilalar va barqaror kelajak shakllanadi.

Jahondagi bugungi globallashuv jarayoni, raqamli kommunikatsiyalar ta‘siri va postmodern individualizm kuchayishi tufayli an‘anaviy oila institutlarida jiddiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ko‘plab mamlakatda otalik maqomi, oiladagi vazifalar taqsimoti, tarbiyada erkanning ishtiroki kabi masalalar yangi nazariy va amaliy muhokamalar mavzusiga aylangan. Bu boradagi tortishuvlar aniq tavsiya va yechimlarni kutib turibdi. Ayniqsa, BMT, UNICEF, UNESCO kabi xalqaro tashkilotlar oila barqarorligi, bola huquqlari va ma‘naviy tarbiyani ta‘minlashda otalarning ishtiroki va mas‘uliyatini kengroq o‘rganishga asosiy e‘tibor qaratgan.

Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari va falsafiy maktablar, jumladan, Harvard Family Research Project (AQSH) otaning ma‘naviy yetakchilik rolini ta‘lim va ijtimoiy rivojlanish kontekstida tadqiq qiladi. Max Planck Institute for Social Anthropology (Germaniya) oilaviy munosabatlarning etnomadaniy va falsafiy asoslarini o‘rganishda otalarning jamiyatdagi mas‘uliyatiga alohida e‘tibor qaratadi. Centre for Fathering (Singapur) kabi markazlar otalik burchi va mas‘uliyatini global muammo sifatida ko‘rmqda. Bular otaning ijtimoiy burchi va ma‘naviy mas‘uliyati masalasini xalqaro falsafiy va ilmiy markazlar kun tartibiga chiqarganini ko‘rsatadi.

Otalik ijtimoiy-ma‘naviy mas‘uliyatdir. Otalik burchi oilani moddiy ta‘minlashdan tashqari, farzandga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, jamiyatga foydali inson qilib voyaga yetkazishdir. Shu bois, bu mas‘uliyatli va doimiy sa‘y-harakat talab etadigan muqaddas vazifa.

Falsafiy yondashuvga ko‘ra, otalik faqat

biologik hodisa emas, balki unga ma‘naviy rahbar, oilaviy qadriyatlarini saqlovchi va uzatuvchi sifatida qaraladi. Bu jihatdan ota jamiyatning kichik modeli bo‘lgan oilaning tartib-intizom, adolat va mas‘uliyat timsolidir. U namoyon qiladigan axloqiy ibrat, namuna — halollik, mardlik, sabr-toqat, mas‘uliyat farzandlarning shaxsiy va fuqarolik xususiyatlari shakllanishida muhim o‘ringa ega. Otaning burchi va mas‘uliyati uch asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: birinchisi — iqtisodiy ta‘minot, ikkinchisi — ma‘naviy-tarbiyaviy rahbarlik, uchinchisi — ijtimoiy javobgarlik.

Iqtisodiy ta‘minot orqali oila a‘zolarining moddiy ehtiyojini qoplaydi. Ma‘naviy jihatdan esa farzandlariga hayotiy qadriyatlar, insoniy fazilatlar, vatanparvarlik va mehnatsevarlik ruhida tarbiya beradi. Ijtimoiy mas‘uliyat esa otaning oila a‘zolari, jamiyat va davlat oldidagi mas‘uliyatini anglatadi.

Hozirgacha sotsiologiya, psixologiya va pedagogika sohalarida onaning roli, maqomi, oiladagi o‘rni keng va chuqur o‘rganilgan. Onalik instinkti, tarbiyadagi o‘rni, bolaning shaxsiy rivojlanishiga ta‘siri to‘g‘risida ko‘plab ilmiy ishlar, tadqiqotlar mavjud. Ammo otalik instituti va uning zamonaviy jamiyatdagi transformatsiyasi kamroq o‘rganilgan. Oilalardagi muammolar, farzand tarbiyasidagi yetishmovchiliklar ko‘p hollarda otaning roli susaygani yoki yetarli emasligi bilan bog‘liq.

Otalarning tarbiyada sustkashligi, mehnat migratsiyasi sababli oiladan uzoqda bo‘lishi, otalikka nisbatan ijtimoiy tasavvur va kutilayotgan mas‘uliyatlar o‘zgarib borayotgani shular jumlasidan. Shu nuqtayi nazardan, otalik mas‘uliyatini o‘rganish bugun juda ham dolzarb ilmiy yo‘nalish.

Oilaviy muhitda uyg‘un munosabatlarni saqlash va barcha oila a‘zolarining farovonligini ta‘minlashda burch, mas‘uliyat va majburiyat kategoriyalari muhim ahamiyatga ega. Ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘zaro dialektik munosabatlarni tashkil qiladi. Burch boshqa oila a‘zolari oldida va o‘zaro munosabatlarda, mas‘uliyat insonning xatti-harakatlari va ularning oqibatidan xabardorligida, majburiyat ular uchun javobgarlikni zimmasiga olishga tayyorligidan kelib chiqadi. Shu uch tushuncha insonning jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, boshqa odamlar bilan munosabatlarni saqlab turishi va shaxs sifatida rivojlanishida yordam beradi.

Burch insonning oilaviy munosabatlardagi ma‘naviy majburiyati bo‘lib, shaxsning ichki

tafakkuri, axloqiy tamoyillari va jamiyatda qabul qilingan me‘yorlarga muvofiq shakllanadi.

Mas‘uliyat shaxsning o‘z zimmasidagi vazifalar va xatti-harakatlari uchun javobgarligidir. U oilaviy muhitda ichki (axloqiy) hamda tashqi (ijtimoiy) omillar ta‘sirida tarkib topadi. Mas‘uliyatning mohiyati shundaki, inson o‘zining qarorlari va xatti-harakatlari oqibatini anglab, ular uchun javobgar bo‘ladi.

Majburiyat shaxsga qonun, ijtimoiy yoki axloqiy me‘yorlar orqali yuklatilgan vazifalardir. Oila muhitida majburiyat, asosan, moddiy ta‘minot, huquqiy munosabatlar va amaliy harakatlar bilan bog‘langan. Burch, mas‘uliyat va majburiyat qisman dinamik xususiyat kasb

qarashlarini rivojlantirishga yordam beradi. Otalik maqomining axloqiy jihatlari otaning farzandlari, turmush o‘rtog‘i va jamiyat oldidagi mas‘uliyatini anglatish belgilaydi.

Otaning birinchi va eng asosiy vazifasi oila a‘zolarining moddiy ta‘minotini kafolatlashdir. U oilaning iqtisodiy barqarorligi, farzandlarining ovqatlanishi, kiyim-kechak, ta‘lim va tibbiy xizmatlarga ehtiyojlarini ta‘minlash uchun mas‘uldir.

Ikkinchi muhim funksiyasi tarbiyaviy yetakchilikdir. Ota farzandlariga nafaqat og‘zaki pand-nasihat, balki shaxsiy ibrati orqali ham ijobiy xulq-atvor namunasini ko‘rsatadi. Ular orqali farzandlar mehnatsevarlik, halollik,



Ota doimo o‘z ustida ishlovchi, bilimga chanqoq, hayotda faol inson bo‘lishi kerak. U o‘qiydi, kuzatadi, yangiliklarni o‘rganadi va o‘zini har tomonlama takomillashtirib boradi. Chunki farzandlar otaning xatti-harakatlaridan ibrat oladi. U qanday yashasa, farzand ham shunday yashashga intiladi. Shu sababli ota hayotga jiddiy qaraydigan, maqsadli va mehnatsevar inson sifatida o‘zini namoyon etishi muhim.

etib, oilaviy munosabatlarning evolyutsiyasi bilan ularning mazmun-mohiyati ham o‘zgarib boradi.

Jamiyatshunos olimlar otalikni oilaning o‘zaro munosabatlari belgilovchi asosiy bo‘g‘in sifatida talqin qiladi. Ota oilaning ijtimoiy mavqei shakllanishi, oilada axloqiy me‘yorlar va qadriyatlarini belgilab beruvchi muhim mexanizm ekanini e‘tirof etadi. U farzandlari uchun obro‘ va namuna bo‘lib, ularning shaxsiyati va axloqiy

mas‘uliyat, adolat va vatanparvarlik kabi qadriyatlarini o‘zlashtiradi. Tarbiya jarayonida otaning qat’iyati va bir vaqtning o‘zida mehribonligi muhim o‘rin tutadi.

Uchinchi funksiyasi — psixologik barqarorlikni saqlash. Ota oilada tinchlik, o‘zaro hurmat va tushunishni shakllantirishga xizmat qiladi. Oilada ichki nizolar, kelishmovchiliklar yuzaga kelsa, aynan ota vaziyatni tahlil etib, oqilona yechim topish yo‘lini izlaydi. Bu jihatdan u oilaning ichki muvozanatini ta‘minlovchi arab sifatida ko‘riladi.

To‘rtinchi funksiyasi — ijtimoiylashtirish bo‘lib, farzandlarining jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy rollarni egallashida otaning o‘rni beqiyos. Ular orqali bolalar jamiyatdagi erkaklik rolini, mas‘uliyatni, jamiyat oldidagi burchini anglaydi. Bu esa ularning shaxsiy kamoloti va sog‘lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishida muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ota — oila boshlig‘i, ya‘ni strategik qarorlar qabul qiluvchi, oilaning kelajagini belgilovchi shaxs. U jamiyatdagi o‘zgarishlar fonida oilani to‘g‘ri yo‘naltirish, xavf-xatarlarni oldindan ko‘ra bilish va muqobil yo‘llarni tanlashda boshchilik qiladi.

Otaning oiladagi o‘rni va funksiyalari faqat moddiy ta‘minot bilan cheklangan qolmay, murakkab ijtimoiy-psixologik va ma‘naviy mas‘uliyatni ham qamrab oladi.

ma‘naviy salohiyati oshayotganidan dalolat beradi.

Har bir ota oilaning tayanchi, farzandlar tarbiyasining asosiy ustundir. U ibrat timsoliga aylanish orqali nafaqat oilasini, balki jamiyatni ham sog‘lom, ma‘naviyatli avlod bilan ta‘minlaydi. Buning uchun har bir ota hayotini ma‘naviy yetuklik va axloqiy poklik mezonlariga asoslanib yo‘lga qo‘yishi lozim. Quyida ota sifatida ibrat timsoliga aylanish uchun zarur amaliy tavsiyalar o‘rin olgan.

Avvalo, ota doimo o‘z ustida ishlovchi, bilimga chanqoq, hayotda faol inson bo‘lishi kerak. U o‘qiydi, kuzatadi, yangiliklarni o‘rganadi va o‘zini har tomonlama takomillashtirib boradi. Chunki farzandlar otaning xatti-harakatlaridan ibrat oladi. U qanday yashasa, farzand ham shunday yashashga intiladi. Shu sababli ota hayotga jiddiy qaraydigan, maqsadli va mehnatsevar inson sifatida o‘zini namoyon etishi muhim.

Ikkinchidan, farzandlar bilan yaqin muloqotda bo‘lish — ota ibratining asosi. Bola otasi bilan o‘z his-tuyg‘ulari, orzu-niyatlarini bemalol bo‘lisha oladigan muhitda ulg‘aysa, o‘zini qadrlagan, tushunilgan va ardoqlangan his qiladi. Shu bois, ota farzandlari bilan har kuni suhbat qurishi, ularning savollariiga e‘tibor bilan javob berishi, his-tuyg‘ulariga befarq bo‘lmisligi kerak.

Uchinchidan, ota xatti-harakati bilan

mehnatga sadoqatli bo‘lishi, halol rizq topishga intilishi zarur. Bola otasining har kuni tinimsiz mehnat qilayotgani, vijdonan ishlayotganini ko‘rsa, unda ham mehnatsevarlik, javobgarlik, halollik kabi fazilatlar shakllanadi. Ayniqsa, bola otasining har qanday holatda ham haqiqatni tanlaganini ko‘rsa, o‘zi ham hayotda shu yo‘ldan bormoqchi bo‘ladi.

To‘rtinchidan, ota axloqiy va ma‘naviy qadriyatlarga sodiq, ayniqsa, oilada mehr-oqibat muhitini shakllantirishda faol bo‘lishi kerak. Farzandlar onaga hurmatni otadan o‘rganadi. Shuning uchun ota turmush o‘rtog‘iga mehr, hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, oilasida do‘stona muhit yaratishi lozim.

Beshinchidan, ota milliy qadriyatlarini farzandlar ongiga singdirishda faol bo‘lishi kerak. U farzandlari bilan bayramlarni birga nishonlashi, hayotiy saboqlarni bolalarga sodda tilda tushuntirishi lozim. Bu orqali ota nafaqat ma‘naviy tarbiya berib boradi, balki o‘zini ana shu qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida namoyon etadi.

Oltinchidan, ota hayotda aytgan so‘zi bilan qilgan ishi orasida tafovut bo‘lmisligini ta‘minlashi lozim. Ya‘ni u farzandiga biror narsa haqida nasihat qilayotgan bo‘lsa, eng avvalo, o‘zi shu prinsipga amal qilishi kerak. Farzandlar og‘zaki nasihatdan ko‘ra, amaldagi namunalardan ko‘proq ta‘silranadi.

Yetinchidan, ota farzandlarining ijtimoiy hayotdagi faoliyatini nazorat qilib borishi, do‘stlari, internetdan foydalanish madaniyati, qiziqish doirasini nazardan chekda qoldirmasligi kerak. Shu orqali ota farzandining ichki dunyosiga yaqinlashadi, uni anglaydi va kerakli vaqtda to‘g‘ri yo‘l ko‘rsata oladi.

Ota ibrat timsoliga aylanishi uchun doimiy harakat, o‘zini tarbiyalash, sabr-toqat va ma‘naviy yetuklik talab qilindi. U farzand uchun ustoz, do‘st, yo‘l ko‘rsatuvchi va ishonch manbai bo‘lishi lozim. Bunday otalar jamiyatda kuchli, bilimli, ma‘naviy yetuk avlodni tarbiyalab voyaga yetkazadi. Shu sababli har bir ota o‘zining kundalik hayotida “Farzandim men kabi bo‘lishni istaydimi?” degan savolni o‘ziga berib yashasa, ibratli ota bo‘lish sari muhim qadam tashlagan bo‘ladi.

Ijtimoiy-ma‘naviy hayotimizda oila institutining mustahkamligi, farzand tarbiyasidagi ota-onaning o‘rni ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, jamiyatimizda otalarning oila, farzandlar tarbiyasidagi o‘rmini yanada mustahkamlash maqsadida Otalar kunini alohida sana sifatida nishonlash foydalan xoli bo‘lmaydi, nazarimda. Zero, bu ibratli otalarni taqdirlash, ma‘naviy rag‘batlantirish, ommaviy tadbirlar tashkil etish orqali jamiyatimizda otaning ijtimoiy-ma‘naviy mavqeiini yuksaltirish, oilalardagi mas‘uliyat muvozanatini tiklash va erkaklarning tarbiyaviy rolini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, yosh avlod qalbid ota shaxsiga hurmat, minnatdorlik va sadoqat tuyg‘ularini shakllantiradi. Bu esa milliy tarbiya tizimini mustahkamlashga hissa qo‘shadi.



Surxondaryoning Termiz tumanida Muhiddin Eshtemirov nomidagi mahalla bor. Bu nom 2001-yil 14-iyulda Sariosiyo tumanining tog‘li hududlarida kechgan jangovar harakatlarda qahramonlarcha halok bo‘lgan Muhiddin Eshtemirov sharafiga qo‘yilgan. Mahalladagi 24-umumta‘lim maktabi hovlisida uning byusti o‘rnatilgan. Maktab hududida mard, jasur serjant Muhiddin Eshtemirov xotirasiga bog‘ yaratilgan. Qahramon tahsil olgan sinf “Vatanparvarlik xonasi”ga aylantirilgan.

Millat fidoyilari

ULAR QALBIMIZDA MANGU YASHAYDI

— Mahallamizda tug‘ilib kamolga yetgan va vatan uchun jonini bergan qahramon byusti va “Vatanparvarlik xonasi” shunday bir joyki, bu muhitda har qanday kishi o‘zligini, mamlakat oldidagi burchini teran anglaydi, yuragida g‘ayrat-shijoat uyg‘onadi, — deydi o‘qituvchi Zarina Shernazarova. — Maktabimizga bilim olish uchun har kuni yuzlab o‘g‘il-qiz kelib ketadi. Ular doimo qahramonning viqorli byustiga bir ko‘z tashlab o‘tadi. Kimki vatan xizmatiga bel bog‘lab, umri, jonidan kechgan bo‘lsa, qalblarda mangu yashashini anglaydi.

Serjant Muhiddin Eshtemirov halok bo‘lganiga chorak asrga yaqin vaqt o‘tsa-da, uni mahallada tanimagan odamning o‘zi yo‘q. Qahramonlar unutilmaydi deyishganicha bor. El-yurt tinchligi uchun jonini qurbon qilgan Muhiddin Eshtemirov yodi hamisha barhayot.

U 1975-yil 13-aprelda Termiz tumanida tug‘ilgan. 1992-yilda tumandagi 7-umumta‘lim maktabini (hozirgi 24-maktabni) a‘lo baholarga bitiradi. Tarix fanini yaxshi ko‘rar, moziy haqidagi hikoyalarni va qahramonlik dostonlarini sevib o‘qirdi.

Termiz davlat universitetining tarix fakultetiga o‘qishga kirib, 1997-yil muvaffaqiyatli tugatadi hamki muddatli harbiy xizmatga chaqiriladi. Vatan oldidagi burchini sharaf bilan ad etgan Muhiddinning vatanparvarligi va fidoyiligi,

jismanon va ruhan baquvvatligi sabab armiyada ishd qolishga taklif qilishadi.

U 2001-yil may oyidan Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismda shartnoma asosida xizmat qila boshlaydi.

2001-yilning yoz oylari edi. Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlari tog‘li hududlarida qurollangan noma‘lum shaxslar harakatlari haqida ma‘lumot olindi va serjant Muhiddin Eshtemirov xizmat qilayotgan bo‘linma shaxsiy tarkibiga jangovar vazifa qo‘yildi.

Razvedka-qidiruv harakatlari chog‘ida 26 yoshli Muhiddin holatining jiddiyligini inobatga olib, o‘ta sergaklik bilan harakat qiladi va tevarak-atrofni sinchkovlik bilan kuzatib boradi. Kutilmaganda pistirmaga duch keladi va pistirma haqida safdoshlariga xabar berishga ulgurib qoladi. Qisqa otishmalar vaqtida serjant Muhiddin Eshtemirov jasorat ko‘rsatib, jang chog‘ida qahramonlarcha halok bo‘ladi.

Qahramonlar haqida tayyorlangan “Mard o‘g‘lonlar nomi barhayot” kitobida Muhiddin Eshtemirov haqida bunday yozilgan:

— O‘sha paytda muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan edim. 2001-yil yuz bergan bu mudhish voqeada men ishtirok etganman. Muhiddin aka o‘ta ziyrak, chaqqon va chayir, vatanga, safdoshlariga mehri baland yigit edi. Uning bunday fazilatlariga barchaning havasi

kelardi. Tog‘da yakka o‘zi bir guruh jangarilarga qarshi kurashib, yurt osoyishtaligi uchun ko‘kragini qalqon qilib, vatan himoyachisi qanday bo‘lishi kerakligini namoyon etib ketdi. U ko‘rsatgan jasorat hamon qurolodhlari, do‘stlari tomonidan yodga olindi, — deydi o‘z davrida shartnoma asosida xizmat qilgan serjant Husniddin Vahobov.

Qahramonning Termiz tumanidagi Muhiddin Eshtemirov mahallasida istiqomat qilayotgan onasi Manzura momo to‘rt o‘g‘il va besh qizni tarbiyalab ulg‘aytirdi. Muhiddin oiladagi oltinchi farzand edi.

— Muhiddinim aqlli, ilmga chanqoq, juda a‘lochi, polvosnifat, baquvvat yigit edi. Har safar xizmatdan kelganida ishlari yaxshiligini aytib, ko‘nglimizni xotirjam qilardi, — deydi onasi Manzura momo Dillayeva. — Inson yuz yoshga kirsam ham unutilishi mumkin, ammo kam bo‘lsa-da, vatani uchun jon berib yashagan odam unutilmas ekan. O‘g‘lim 26 yoshida elning qahramoni bo‘ldi, barchaning, xalqning, davlatining tiliga tushdi, yurtiga, oilasiga katta shuhrat keltirdi. Har qanday ona uchun qahramon askarning volidasi bo‘lish ulkan baxt. Men bu qismatimga, o‘g‘limga bergan oq sutimga mingdan ming roziman.

Muhiddin Eshtemirov mahallasining yosh-u qarisi shahadlarini daxsizligi va bugungi tinch,

osuda hayotimiz uchun jon fido qilgan serjant bilan faxrlanib yashaydi. Bayramlar arafasida mard, jasur o‘g‘lon kamolga yetgan Manzura momo Dillayeva xonadoni turli soha vakillari, harbiylar, yoshlar va mahalladoshlari bilan yanada gavjum bo‘ladi.

Askarning jasoratga yo‘g‘rilgan hayot yo‘li esa yoshlarga ibrat qilib ko‘rsatiladi. Uning yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash yo‘lida ko‘rsatgan qahramonligi vafotidan so‘ng davlatimizning yuksak mukofoti — “Jasorat” medali bilan taqdirlandi. Harbiy qismlarda uning qasamyodiga sodiqligi o‘z ifodasini topgan surat va lavhalar joylashtirilgan bo‘lib, yosh harbiylar uchun tom ma‘nodagi ibrat maktabi vazifasini o‘tamoqda.

— Har yili bayramlar arafasida davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, harbiylar uyimizga kelib, hol-ahvol so‘rab turadi, moddiy-ma‘naviy qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Jigarbandimning xalqimiz qalbid abadiy yashayotgani bizga dalda bo‘ladi. Buning uchun davlatimizdan cheksiz minnatdorman, — deydi Manzura momo Dillayeva.

Elning yo‘lovchi farzandidan erta ayrilgan onaning ko‘nglini tog‘day ko‘taradi. Egasi bor yurtning ertasi borligidan xotirjam bo‘lib, duoga qo‘l ochadi.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Albatta o‘qing!

Rang so‘zining ranginligi

(“So‘z latofati” kitobidan)

Tongotar ufqidan endigina ko‘tarilgan, hali yallig‘lanib, ko‘zni olar darajaga yetmagan quyoshga qaraganmisiz? Nurlanib turgan bu ulkan oltin barkash qalbingizga zavq berganmi? Yoki oftobning botishiga nazar solganmisiz? Oqshom va tongotarda xurshidi jahonning tamoman o‘zgacha, bir-biriga o‘xshamas ranglaridan hayratlanganmisiz? Bilasizmi, hovlingizda o‘sgan guli ra‘no qanday rangda? E‘tibor berganmisiz? Albatta, razm solsangiz, bilasiz. Siz axir bebahra inson emassiz. Bu ranglarni bilganingiz uchun Hazrat Navoiyning go‘zal baytidan zavq-shavqqa ko‘linganisi:

*Quyoshqa gah qizarmak, gohi sarg‘armoq erur andin
Ki, sun‘ung bog‘ida bor ul sifat yuz ming guli ra‘no.*

Ko‘nglaking lavnidan o‘ldim,
atridin tondim hayot,
Qaysi gul bergida bor erkin
bu yanglig‘ rangi bo‘?
Navoiy asarlari lug‘atiga qarasangiz, rang so‘zining beshta ma‘nosini topasiz. Mabodo Sharq qo‘lyozmalari xazinasiga kirsangiz, “Qanz ul-lug‘ot”, “Muntahab ul-lug‘ot”, “Bahr ul-javohir”, “Lubbul albob”, “Kashf ul-lug‘ot”,

“

RANGLAR DUNIYO SI O‘ZI BIR MO‘JIZA. YAPONIYADA RANGLARNI O‘RGANUVCHI MAXSUS ILMIY INSTITUT BOR. OLAMNING RANGINLIGI, RANGLARNING KISHI KAYFIYATIGA TA‘SIRI, TURLI RANGLARNING BIR-BIRIGA MOS TUSHISHI, RANGLARGA NISBATAN INSON DIDINING SHAKLLANISH JARAYONIDAN TORTIB, ODDIYGINA GALSTUKNI TO‘G‘RI TANLASHGACHA SHU DARGOHDA O‘RGANILADI. YAPONLAR RANGLARGA JUDA E‘TIBORLI. BIZNING HAM ULARDAN KAM JOYIMIZ YO‘Q. YURTIMIZ ULARNING YURTIDAN O‘N HISSA RANGINROQ, SHE‘RIYATIMIZ O‘N KARRA BOYROQ.



yosh oqadi. Buni ko‘rgan el-ulus: “Dardi og‘ir ekan, menga yuqmasin”, deb oshiqdan o‘zini olib qochadi. Ulusning g‘avg‘olari joniga tekkan oshiq shoir bundan xursand. Qizil qonim, sariq yuzim bilan, ya‘ni har rang bilan ulusni qochirdim, undan o‘zimni qutqardim deydi. Hasratli, ammo yorqin va go‘zal tashbih. Qadimgi lug‘atlarda nayrang so‘zi nirang, nerang deb o‘qiladi. Arab yozuvida yoy harfining ikki xil aytilishi bois, nerang nayrangga aylangan. Aslida, nayrang ham har rang degan ma‘noni bildiradi. Ko‘zni aldab, har rangda tuslanish nayrang hisoblanadi. Bugun urfga kirgan xislat.
Rang forsa so‘z, arabchasi lavn. Biz alvon deb qizil rangni aytmiz. Aslida, alvon lavnning ko‘pligi, lavnlar, ranglar demakdir. Biz, turkiy xalqlar tus deymiz. Hazrat Navoiy har uch so‘zni teng e‘zozlab, g‘azallarga kiritgan.
Novakining parrru payqonida
rangin tus erur,
Yoki ko‘nglimdan chu parron o‘tdi,
yuqmish qon anga.
Yor otgan kamon o‘qiga bog‘langan par rangindir. Bu o‘rinda rangin tus qon yuqi ma‘nosida kelgan. Novakning pari qon yuqi bo‘lishiga sabab shuki, u yuragimni teshib o‘tgan.

“Firdavs ul-lug‘ot”, “Muayyid ul-fuzalo”, “Latoif ul-lug‘ot”, “Burhoni qote”, “Farhangi Jahongiri”, “Siroj-ul lug‘ot”, “Rashidiyi arabi”, “Rashidiyi forsi”, “Charog‘i hidoyat”, “Javohir ul-huruf”, “Bahori ajam”, “Farhangi sururi”, “Muzil ul-alg‘ot”, “Shar‘ ush-shuaro”, “Majmu‘ ul-lug‘ot”, “Bahri mavvoj”, “G‘iyos ul-lug‘ot”, “Madorik”, “Muhazzab ul-lug‘ot”, “Nafois ul-funun”, “Oyini Akbariy”, “Fusuli Akbari”, “Chorbardi”, “Abushqa” singari lug‘atlarni varaqlasangiz, rang so‘zining o‘ttiz bir ma‘nosini topasiz. Faqat soddalik qilib, bu kitoblarni kutubxonalarimizdan izlab ovora bo‘lmang. Ularning hech biri O‘zbekistonda nashr etilgan emas. Til boyligimizga, nafis adabiyotga eski bepisanlik davom etsa, hech qachon nashr etilmas. Har bir savodli inson yaxshi tushunadiki, lug‘at ko‘rmay, tariximizni, ko‘p asrlik adabiyotimizni o‘rganib ham, o‘rgatib ham bo‘lmaydi. Navoiy so‘zlari lug‘ati bor-ku, derisiz. Avvalo, mumtoz adabiyotimiz yolg‘iz Navoiydangina iborat emas. Tilning butun boyligini birgina shoir qamrab olishi imkonsiz. Qolaversa, bu lug‘atlarda Navoiy so‘z xazinasini to‘liq aks etgan emas. Shu nomukammal manba ham ko‘p yillardan beri qayta nashr etilmagani uchun kitob do‘konlaridan topish ilojisiz. Hammasidan ham Ota lug‘atimiz sanalgan, har bir o‘zbekning bosh kitobi bo‘lishi zarur hisoblangan “Devonu lug‘otit turk”ning ellik yil (!) davomida qayta nashr etilmagani alamlidir.

Mustaqil yurtimizning o‘z mustaqil armiyasi o‘z harbiy atamalarini topardi. Sarkarda yonida sartiib, sarhang, sarlashkar, sipohsolor kabi jangovar unvon-darajalarimiz bo‘lar, avangard, aryergard o‘mida hirovul, chindovul deb, o‘ng va so‘l flangini burong‘or, juvong‘or deya Temur bobomiz aytgandek, Hazrat Navoiy she‘rga solgandek aytardik:
Ham burong‘or, ham juvong‘or kinsigol,
Ham yana g‘ulu hirovulda bu hol.
Bu sof turkiy so‘zlarning talaffuzi qiyin bo‘lsa, maymana, maysara derdik. Men asl o‘zbekcha yuzboshi, mingboshi, ayniqsa, qo‘rboshi unvonlarini tilga olmadim. O‘tmishimizni qoralash urf bo‘lgan zamonda ular shu qadar loyqa qorilganki, eshitgan odam bugun ham seskanadi. O‘rni kelganda aytib qo‘yay: qo‘rboshi emas, qurboshi desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki qur to‘plash, yig‘ish ma‘nosini anglatuvchi qurmoq so‘zining o‘zagi. Yigitlar davra qursa, bir qur yigiti deymiz. Bir qur ichidagi yigitlar qurdosh bo‘ladilar. Yoshi tenglari tengqur ataladi.
Tilshunos olimlarning ko‘plari bilan do‘stman. Do‘st achitib gapiradi. Lekin faqat achitq gaplarga ayt sak, insodfan bo‘lmas. Shubha yo‘lki, istig‘lol yillarida tilshunosligimiz birmuncha rivojlandi. Katta jamoaning ko‘p yillik mehnati — besh jildli izohli lug‘atning nashr etilgani, garchi u mukammallikdan yiroq bo‘lsa ham, el ma‘rifati uchun foydali ish bo‘ldi. Professor Qosimjon Sodiqov “Devonu lug‘otit turk”ning qayta nashri ustida ish olib bormoqda. Akademik Ergash Fozilov Navoiy asarlarining to‘ldirilgan va batafsil sharhlangan lug‘atini tayyorlamoqda. Allomani ayitishicha, bu lug‘at har biri ming sahifalik beshta kitob bo‘ladi. Atog‘li tilshunos Shavkat Rahmatullayev uch kitobdan iborat o‘zbek tilining etimologik lug‘atini chop ettirdi. Akademik Ne‘matulla Ibrohimov rahbarligida tayyorlanayotgan arabcha-o‘zbekcha mukammal lug‘at yaqin oylarda dunyo yuzini ko‘rajak. Sharqshunos olim Muhammadjon Imomnazarov o‘z shogirdlari bilan “Xamsa”ning to‘la so‘zligi, konkardansini tuzmoqda. Bular, albatta, olijanob ishlar. Lekin armon armonligicha qoladi. Musulmonchilik astachilik deya o‘zimizga taskin berib, shitob zamondan ortda yurish endi yarashmaydi. Olimlarimiz zimmasida mumtoz adabiyotimizning mukammal so‘zligini tuzib berishdek ulkan burch turibdi. O‘zbek tilining o‘z grammatikasi — sarfu navhi yo‘q. Kinga tobe bo‘lsak, uning iti qoidalarni olganmiz. Hozirda rus tilining so‘z yasash, gap qurish, imlo talablarini shundoqqina qabul qilganmiz. Tilshunoslik atamalarimiz bari ruschadan tarjima qilingan. O‘z ona tilimizga mos grammatika

yaratish ham olimlarimiz bo‘ynidagi qarz. Ham bugungi avlod, ham kelajak nasllar oldida o‘tash zarur, kechiktirib bo‘lmas qarz bu.
Mana, uzoq cho‘zilgan, zinhor lirlik bo‘lmagan chekinish nihoyat tugadi. Endi mavzuga qaytamiz. Darhaqiqat, rang so‘zining o‘ttiz bir ma‘noda kelishi kitoblarda ko‘rsatilgan. Birinchisi va eng mashhuri oq, qora, qizil degan kabi tus, ikkinchisi hissa, nasiba, uchinchisi ayb va oriyat, to‘rtinchisi ranju iztirob, beshinchisi quvvat va imkon, oltinchisi jon, yettinchisi nortuya, sakkizinchi mol-mulk, oltin, to‘qqizinchi foyda, o‘ninchisi darveshlarning ko‘k to‘ni, o‘n birinchisi ravish, tarz, o‘n ikkinchisi tog‘ echkisi, o‘n uchinchisi makru hiyla, o‘n to‘rtinchisi ko‘karish, yuz ochish, o‘n beshinchisi yaxshilik, o‘n oltinchisi salomatlik, o‘n yettinchisi sharmu hayo, o‘n sakkizinchisi miqdor, yigirma birinchisi o‘g‘rilik, yigirma ikkinchisi qimor va qimordan topilgan boylik, yigirma uchinchisi tangri va ega, yigirma to‘rtinchisi ota, yigirma beshinchisi yuzdagi xol, yigirma oltinchisi luf va ramzu ishora, yigirma yettinchisi quvnoqlik va sho‘xlik, yigirma sakkizinchisi qo‘ng‘iroq, yigirma to‘qqizinchi qahrur g‘azab, o‘ttizinchisi ipak, o‘ttiz birinchisi xiyonat. O‘zbek tilida rangning o‘ttiz ikkinchi ma‘nosi ham bor. Yuz, aft, bashara ma‘nosida. Rangi ro‘y, ya‘ni yuzning rangi so‘zidan ro‘yning tushib qolishi natijasida hosil bo‘lgan. Rangi siniq, rangi buzdek, rangi sovuq, rangi qursin iboralari bunga misol.
Fuzuliy baytida rang birinchi, asosiy ma‘nosida kelgan bo‘lsa, Bobur baytida o‘n uchinchi ma‘no, ya‘ni hiyla o‘mida ko‘llangan. Navoiy baytidagi rangin tus — qon tusi, ya‘ni o‘n sakkizinchi raqamli mazmunga ega. Hazratning “Lison ut-tayr” dostonidan olingan quyidagi bayt o‘n birinchi raqamli ma‘no, ya‘ni tarz, ravishni bildiradi:
Un chekib noqus ohangi bila,
Kufri elining shevaun rangi bila...

Bu o‘rinda Shayx San‘onning ishqidan majnun bo‘lib, dindin chiqqani va kufri eliga xos tarzda noqis so‘zlar aytgani, butga cho‘qingani, cho‘chqa boqqani to‘g‘risida so‘z boradi.
Rang tushunchasini ifoda qiluvchi so‘zlar ko‘p. Oltin kuz, feruza osmon, zumrad dala deganda, sariq, ko‘k, yashil ranglarni ko‘zda tutamiz.
Shaxmatkashlar uchun yangilik bo‘lishi mumkin: shatranj so‘zining o‘zagi ham rang. Hindistonda kashf etilgan bu donishmand o‘yinning dastlabki nomi chaturang bo‘lgan deydi tarixchilar. Chatur — forsa chorah yoki chor, ruscha chetire so‘zlariga qarindosh — to‘rt raqamini bildiradi. Ch va Sh tovushlari bir-biriga o‘rinbosar. Biz choy, chiroq desak, qipchoq turklari shay, shiraoq deydlar. G va J tovushlari ham shunday. General bilan jeneral, jeografiya bilan jeografiya, Jamol bilan Gamol, Jabalut Toriq bilan Gibraltarni misol qilsak yetar. Chaturang so‘zidagi bosh va oxirgi tovushlar o‘z muqobiliga o‘zgarib shatranj bo‘ldi va shu ko‘rinishda Navoiy zamonga yetib keldi. Qadimda chatur rang — to‘rt rangli bo‘lgan shaxmat donalari ikki rang olib, bugungi sodda va mukammal shakliga ega bo‘ldi. Chatur rang, qarangki, do rangga, oqlar va qoralarga aylandi. Goh oqlar yutdi, goh qoralar. Ikki tomon teng kelganda du rang — barobar deyiladigan bo‘ldi. Bora-bora so‘z qisqartishga omil xalq teng natijani durang deya boshladi va bu so‘z shaxmat doirasidan chiqib, musobaqaning hamma turini qamrab oldi. Ikki rangga hech bir aloqasiz bo‘lgan, masalan, intellektual musobaqalar ham endi durang bilan tugashi mumkin. Bu ham So‘z olamidagi mu‘jizaviy evrilishlardan biri.
Ranglar dunyosi o‘zi bir mo‘jiza. Yaponiyada ranglarni o‘rganuvchi maxsus ilmiy institut bor. Olamning ranginligi, ranglarning kishi kayfiyatiga ta‘sir, turli ranglarning bir-biriga mos tushishi, ranglarga nisbatan inson didining shakllanish jarayonidan tortib, oddiygina galstukni to‘g‘ri tanlashgacha shu dargohda o‘rganiladi. Yaponlar ranglarga juda e‘tiborli. Bizning ham ulardan kam joyimiz yo‘q. Yurtimiz ularning yurtidan o‘n hissa ranginroq, she‘riyatimiz o‘n karra boyroq. Elimizga o‘n barobar ko‘p ne‘mat ato etgan tangrimiz yaponidagi hafsala va urinchoqlikning o‘ndan birini bizga bersa edi...

Erkin VOHIDOV,
O‘zbekiston xalq shoiri



Ma‘rifat ulashib



“MARD ASKARGA SOVG‘A” – VATANGA MUHABBAT TIMSOLI

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Qurolli Kuchlar tizimidagi tashkilotlar hamkorligida harbiy xizmatchilar, harbiy ta‘lim muassasalari kursantlari uchun “Mard askarga sovg‘a” ruknida kitoblar chop etilishi o‘ziga xos an‘anaga aylanib ulgurdi. Ushbu an‘ana yosh avlodni vatanga sadoqat, fidoyilik va daxldorlik ruhida tarbiyalashi bilan alohida ahamiyat kasb etayotir.

Qurolli Kuchlar akademiyasida 2025-yilda ushbu turkumda chop etilgan 7 nomdagi kitobning taqdimoti o‘tkazildi. Prezidentimizning O‘zbekiston Respublikasi

Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazish to‘g‘risidagi tegishli farmoyishi

ijrosiga oid chora-tadbirlar rejasida ham “Mard askarga sovg‘a” ruknida kitoblar chop etish va ularning taqdimotini harbiy xizmatchilar, harbiy ta‘lim muassasalarida o‘tkazish belgilangan.



Taqdimotda Mudofaa vazirligi va Yozuvchilar uyushmasi rahbariyati vakillari hamda mas‘ul xodimlari, uyushma a‘zolari, vazirlik tizimidagi harbiy xizmatchilar va kursantlar ishtirok etdi.

Kitoblarda o‘zbek milliy adabiyoti vakillari ijodidan namunalar to‘plangan. Ulardagi she‘r va hikoyalarda vatanparvarlik, burchga sadoqat, inson sha‘ni va qadr-qimmatini ulug‘lash kabi g‘oyalar yetakchi o‘rin egallaydi.

“Mard askarga sovg‘a” turkumi “Bobomeros tuyg‘u”, “Askar onasi”, “Olimpiada ilhomlari”, “Ota makon”, “Vatanni har kimga ishonib bo‘lmas”, “Mehring bilan yashaymiz, Vatani!” hamda “Er yigit yurtidan kechmaydi” kabi kitoblardan iborat. To‘plamni jamlashda yoshlar ijodiga ham alohida ahamiyat berilgan.
— Yurt farovonligiga hamma o‘z hissasini qo‘shadi. Biz, ijodkorlar ham ega maqsad yo‘lida bor imkoniyatimizni ishga solamiz, — dedi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid.
Taqdimotda mazkur loyihani mumtoz davom ettirish hamda ushbu kitoblar tez orada barcha harbiy qism, okruglar, harbiy ta‘lim muassasalariga yetkazilishi ta‘kidlandi.
Tadbirida ona yurti tarannum etuvchi kuy-qo‘shiqlar yangradi. Videokonferensaloqa tizimi orqali Mudofaa vazirligining tegishli harbiy okruglari xizmatchilariga ham onlayn uzatildi. Shuningdek, katta ekranda mudofaa tizimidagi islohotlar, harbiylar hayotini aks ettiruvchi videorolik namoyish etildi.

Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetolari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatidan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-646.
36191 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turok ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Bekkul Egamqulov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘za yakuni — 20:50 Topshirildi — 23:05